



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310





TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA


Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari)	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qo'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish	36
Mamatkulova Kimyoxon Abduljalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinova, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi.....	70
Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati	84
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	



O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе “Руководитель - Подчиненный”.....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari.....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде	113
Аскарлова Гулрух Оринбосаровна	
Ривожланish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish.....	117
Махмутазимова Юлдуз Рахматовна, Амирова Муниса Юсуф қизи	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова “Отверзи мне двери” и Улугбека Хамдама “Бунт и смирение”	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development.....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilingual rivojlanish.....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо.....	157
Эргашева Камола Алишеровна	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children	161
Gaukhar Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	



BOSHLANG'ICH MAKTABLARDA O'QUVCHI VA O'QITUVCHI MUNOSABATLARIDA IKKI TOMONLAMA YONDASHUV



Xayitova Zilola Maxmudjonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan huquqiy me'yorlarning o'zlashtirilishi va ularga amal qilinishi ham ahamiyatli bo'lib, turli ko'rinishdagi faoliyatni qonuniy tarzda amalga oshirishga odatlanishlari, qonunlarni hurmat qilish hissiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Huquqiy-me'yor ijtimoiy-me'yorlarning bir turi bo'lib, "ma'lum bir sharoitlarda o'zini qanday tutish haqidagi axborotdan iborat bo'lgan irodaviy tartibga soluvchi ko'rsatma" sifatida aks etadi. "Uning xususiyati shundaki, bu davlat bilan mustahkam bog'langandir. U qonunda yoki boshqa huquqiy aktda aks ettirilgan bo'lishi, davlatning majburlash kuchi bilan ta'minlanishi kerak. Huquqiy me'yor ijtimoiy munosabatlarni davlatning vazifalari va funksiyalari bilan mos kelgan holda tartibga solinishiga qaratilgandir. Hozirgi vaqtda yosh avlodni tarbiyalash masalasi jamiyatda qadriyatlar tizimini yaratish bilan bog'liq. Aynan jamiyat tanlov mezonlarini belgilaydi, yagona qadriyatlar tizimini amalga oshiradi. Biroq, shaxs hayotdagi eng qimmatli narsa nima ekanligini, nimaga intilishi kerakligini va bunga qanday yo'l bilan erishish kerakligini aniq bilib olishi kerak. Qadriyatlar butunlay sharoit va obyektiv shartlarga bog'liq. Ular odamlar tomonidan to'liq anglab yetilgan va ongli ravishda foydalanilgandagina samarali bo'ladi [1].

Kalit so'zlar: maktab yoshi, tarbiya, vazifa, ta'limning mohiyati, pedagogika, xarakter, atrof-muhit, nazorat qilish, funktsiya.

Abstract: In this article, it is also important to master and comply with the legal norms of primary school students, who are accustomed to the legal implementation of activities in various forms, help them feel respect for the laws. The legal rule is a type of social norm and reflects it as a "strong-willed regulatory instruction containing information on how to behave in certain conditions." Its peculiarity is that it is firmly connected with the state. It must be reflected in a law or other legal act, provided by the force of coercion of the state. The legal norm is aimed at regulating social relations in accordance with the tasks and functions of the state. Currently, the issue of educating the younger generation is associated with the creation of a system of values in society. It is society that determines the criteria of the competition, implements a unified system of values. However, a person should clearly know what is most valuable in life, what to strive for and how this should be achieved. Values depend entirely on objective conditions. They will be effective only in full understanding and conscious use by people [1].

Key words: school age, education, task, essence of education, pedagogy, character, environment, control, function.

Аннотация: В данной статье важно также освоение и соблюдение правовых норм учащимися начальных классов, которые приучены к законному осуществлению деятельности в различных формах, помогают им чувствовать уважение к законам. Правовая норма является разновидностью социальных норм и отражает ее как "волевое регулирующее указание, содержащее информацию о том, как вести себя в определенных условиях". Его особенность в том, что он прочно связан с государством. Оно должно быть отражено в законе или ином правовом акте, обеспечено силой принуждения государства. Правовая норма направлена на регулирование социальных отношений в соответствии с задачами и функциями государства. В настоящее время вопрос воспитания молодого поколения связан с созданием системы ценностей в обществе. Именно общество определяет критерии конкурса, реализует единую систему ценностей. Однако человек должен четко знать, что самое ценное в жизни, к чему стремиться и каким образом это должно быть достигнуто. Ценности полностью зависят от объективных условий. Они будут эффективны только в полном понимании и сознательном использовании людьми [1].

Ключевые слова: школьный возраст, воспитание, задача, суть образования, педагогика, характер, окружающая среда, контроль, функция.

KIRISH

O'rganish natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi huquqiy me'yorlardan xabardor bo'lishlari zarurligini ko'rsatdi: davlat ramzlari (davlat Prezidenti, bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi)ga hurmat ko'rsatish, davlat va fuqarolar mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, jamoat tartibini saqlash, jamoat transportidan foydalanish, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish, iste'molchi sifatida huquq va burchlarini bilish ^[2]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish chog'ida ularning xarakteriga ko'ra ta'qiqlovchi, majburlovchi va vakolat beruvchi me'yorlarga ajratilishini tushuntirish, ularning mohiyatini ko'rgazmali tarzda, hayotiy (bevosita o'quvchilar faoliyatiga oid) misollar yordamida ochib berish pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati to'g'risidagi tushunchalarni singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalari mazkur yo'nalish doirasida o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo'lda pedagogik faoliyatni tashkil etishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning hayoti, kundalik faoliyatiga aloqador ijtimoiy-me'yorlarni ajratib olish talab etiladi. Ular haqida o'quvchilarga ma'lumot berishda esa pedagogik faoliyatning ko'rgazmali bo'lishiga, hayotiy misollardan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor qaratish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning kafolati sanaladi ^[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Mustaqillik yillarida tom ma'noda uzluksiz ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Yangilangan ta'lim mazmunida o'zgarayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mohiyati aks etishiga, shuningdek, shaxs kamolotini ta'minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e'tibor qaratildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limning ham huquqiy negizlari yaratildi. Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang'ich ta'limning umumiy mohiyati "Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi"da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo'lga qo'yilmoqda. Mazkur metodologik hujjatga ko'ra boshlang'ich ta'lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim: bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo'yicha bolalar tashabbusini uyg'otish va qo'llab-quvvatlash; muloqot va hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga erishish; o'ziga ijobiy baho berish va o'ziga bo'lgan ishonchni qo'llab-quvvatlash; o'quv mustaqilligini shakllantirish (o'qishga bo'lgan xohish va ko'nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlar darajasini kengaytirib borish ^[4]). Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayoniga faol jalb etish, shaxslararo muloqotni samarali tashkil etishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tashkil etiladi. Ko'p holatlarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar jarayoni ishtirokchilarning madaniyatlilik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Jamoa joylarida o'zini tutish, kinoteatrlarga tashrif buyurish, umumiy ovqatlanish muassasalarida maishiy xizmat turlari, jamoa transportidan foydalanish, shuningdek, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish jarayonida shaxsning umumiy madaniyati namoyon bo'ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalarni so'z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo'lgan ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, ularga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lishi kerak ^[5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim davrida bu yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy-me'yorlar bilan tanishtirish imkoniyati yanada oshadi. Chunki, ijtimoiy va huquqiy me'yorlar mohiyati muayyan darajada "O'qish", "Odobnoma", "Atrofimizdagi olam" va "Konstitutsiya alifbosi" kabi o'quv fanlari mazmuniga singdirilgan. Xo'sh, o'quv fanlari negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi? Bu jarayonda hech shubhasiz asosiy subyekt bo'lgan o'qituvchi faoliyatni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Quyida ana shu savollarga javob topishga e'tibor qaratiladi. Kasbiy faoliyati nuqtayi nazaridan o'qituvchi bolalarga ta'lim berish (ularni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishtirish, o'qishni va yozishni o'rgatish) va tarbiyalash (o'quvchi shaxsida ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik va hokazo sifatlarni shakllantirish)dan iborat vazifani bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ham o'qituvchi faoliyati ikki muhim yo'nalish, ya'ni o'qitish va tarbiyalashdan iborat bo'ladi ^[6]. Mazkur jarayonda asosiy maqsad o'quvchilar ongiga ijtimoiy va huquqiy me'yorlar, ularning ijtimoiy va har bir shaxs uchun xususiy ahamiyatiga oid nazariy bilimlarni singdirish orqali hurmat hissini tarbiyalash bo'lib, bu maqsadga erishish uchun o'qituvchi muayyan vazifalarni bajarishi lozim.



Jumladan:

- ijtimoiy me'yorlar orasidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kundalik faoliyati uchun ahamiyatli bo'lganlarini ajratib olish;
- ajratib olingan ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga oid tushunchalarning murakkablik darajasini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga oid tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan puxta o'zlashtirishga imkon beradigan yo'llar, omillar, samarali shakllar, metodlar va vositalarni aniqlash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishni uyg'ota olish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni tanlay bilish;
- o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga doir bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini nazorat qilish va baholash.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish yo'lida pedagogik faoliyatni tashkil etar ekan, undan ijtimoiy me'yorlar to'g'risida ma'lumot beradigan manba va vositalardan yaxshi xabardor bo'lish talab qilinadi [7].

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarni shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etuvchi ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilar "O'qish", "Tarbiya", "Atrofimizdagi olam" va "Konstitutsiya alifbosi" kabi o'quv fanlarini o'rganish jarayonida bosqichma-bosqich ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib boradilar. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlar targ'ibotini izchil tashkil etilishini ta'minlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotini yorituvchi tadbirlarni kiritish zarurligini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida "O'quvchilar qoidasi", salomlashish va so'zlashish odobi, to'g'ri ovqatlanish tartibi, kiyinish madaniyati, jamoa joylarida o'zini tutish, harakat xavfsizligi va jamoa transportidan foydalanish qoidalari, madaniy muassasalar kinoteatr, muzey va istirohat bog'larida bo'lish qoidalari, yong'in hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishadilar. O'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(10), 37-43.
2. Samarova, S. R., & Mirzayeva, M. M. (2020). The problem of the formation of creative abilities of students in foreign psychology. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1937-1943.
3. Рахманова, М. К. (2019). Ёшларнинг маънавий тарбиясида қадимги Ўрта Осиё маънавий-маданий меросининг аҳамияти. "Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари" республика илмий-амалий конференцияси, 206-209.
4. Рахманова, М. К., (2019). Изучение стратегии обучения. Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства материалы II международной научно-практической конференции, 7, 95-101.
5. Рахманова М. К., (2019). Талабаларда ижтимоий фаолликини ривожлантиришнинг назарий методологик асослари. *Халқ таълими*, (1), 24-29.
6. Рахманова М. К., (2019). Таълим технологиялари орқали касб танлашда онгли муносабатни шакллантириш. *Халқаро илмий-амалий конференцияси*, 323-326.
7. Абдуллаевна, Ш. К., & Фагимовна, Ш. Н. (2020). Нетрадиционные методы обучения русского языка и литературы. (3).
8. Shokarimova K. A., (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).



Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 2-3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**